




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



VOLUME | 4 ISSUE | 8 | JANUARY | 2026



JCWS

O'QITUVCHILARNING AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASI

Vakkosov Shoxrux Shukurulayevich

ITMA tizimidagi Do'stlik tuman ixtisoslashtirilgan maktabi direktori, mustaqil tadqiqotchi
e-mail: shoxruxshaydullayev@gmail.com



Accepted Date:
January 05, 2026,
Published Date:
January 15, 2026

Journal Website: <https://d-prensa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under
a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

ANNOTATION:

Ushbu maqolada ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim tizimi asosida o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini yanada takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining nazariy jihatlarini tahlil qilinib, o'qituvchilarda kasbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar aniqlanadi. Shu bilan birga, loyiha asosida ta'lim berish, ustoz-shogird an'analari hamda kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash mexanizmlariga tayangan holda takomillashtirilgan metodika taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini kuchaytirishi hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishini namoyon etadi.

KEYWORDS:

ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim, amaliy kompetensiya, pedagog kadrlar, kasbiy ta'lim, loyiha asosida o'qitish, ustoz-shogird, kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.

Kirish

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari ta'lim sifatini yuksaltirish, pedagog kadrlar tayyorlashni mehnat bozori talablariga moslashtirish hamda o'qituvchilarning kasbiy-amaliy salohiyatini rivojlantirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilamoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologik yangilanishlar, raqamlashtirish va innovatsion yechimlarning jadallashuvi ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan chuqur nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda, real ishlab chiqarish muhiti bilan uyg'unlashgan amaliy kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo etmoqda.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ko'p hollarda nazariy yondashuvlar doirasida shakllanib, ishlab chiqarish bilan samarali integratsiya mexanizmlarining yetarli darajada joriy etilmagani ta'lim jarayoni va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasida nomuvofiqliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada pedagoglarning innovatsion texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarini ta'lim mazmuniga singdirish hamda amaliy faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Mazkur sharoitda ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim modeli

o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash, pedagoglarning kasbiy faoliyatini real ishlab chiqarish sharoitlarida takomillashtirish hamda ularning pedagogik va texnologik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishda qo'llanilayotgan metodik ta'minotning tizimlashtirilmaganligi va zamonaviy ishlab chiqarish talablari bilan to'liq mos kelmasligi ilmiy asoslangan takomillashtirilgan metodikani ishlab chiqarish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy o'qitish yondashuvlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Xususan, real ishlab chiqarish muhiti bilan bevosita bog'langan o'quv jarayoni o'qituvchilarda kasbiy faoliyatni modellashtirish, texnologik jarayonlarni tahlil qilish hamda amaliy muammolarni tezkor va samarali hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [1].

1-jadval.

An'anaviy ta'lim modeli va ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim modelining taqqoslama ko'rinishi.

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy ta'lim modeli	Ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim modeli
Ta'lim mazmuni	Asosan nazariy bilimlarga yo'naltirilgan	Nazariya va real ishlab chiqarish jarayonlari uyg'unligi
O'qituvchining roli	Bilim beruvchi, nazoratchi	Amaliy jarayon ishtirokchisi, fasilitator

Amaliy kompetensiyalarni shakllantirish	Cheklangan, fragmentar	Tizimli va uzluksiz
O'qitish metodlari	Ma'ruza, seminar, reproduktiv topshiriqlar	Loyiha asosida o'qitish, keys-stadiy, amaliy topshiriqlar
Ishlab chiqarish bilan aloqadorlik	Epizodik, formal	Doimiy, tizimli hamkorlik
Innovatsion texnologiyalarni qo'llash	Kam darajada	Keng qo'llaniladi (simulyatsiya, raqamli texnologiyalar)
Qaror qabul qilish ko'nikmalari	Nazariy darajada	Real ishlab chiqarish vaziyatlarida shakllanadi
Baholash tizimi	Test va an'anaviy nazorat	Kompetensiyaga asoslangan, natijaviy baholash
O'qituvchining kasbiy moslashuvchanligi	Nisbatan past	Yuqori, mehnat bozori talablariga mos
Ta'lim natijasining samaradorligi	O'rtacha	Yuqori

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim modeli o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim modeliga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Xususan, mazkur yondashuv o'qituvchilarning real ishlab chiqarish jarayonlariga moslashuvi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishi hamda kasbiy faoliyatida mustaqil va samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta'lim mazmuni mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashib, pedagog kadrlar tayyorlash sifati oshadi.

Kasbiy ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilish, boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab boorish hamda ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun ularning kasbiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 26.02.2021-yildagi 106-son qarori qabul qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim sharoitida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarda amaliy kompetensiyalarning tarkibiy qismlari – kasbiy bilimlarni qo'llash, texnologik moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jamoa bilan ishlash ko'nikmalari izchil rivojlanadi. Bu holat, avvalo, o'qituvchilarning o'quv jarayonida faqat bilim beruvchi emas, balki ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritishi bilan izohlanadi [2].

Muhokamalar davomida aniqlanishicha, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim modelida o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan loyiha asosida o'qitish, keys-stadiy, amaliy topshiriqlarni real texnologik jarayonlar

asosida ishlab chiqish kabi metodlar ularning kasbiy refleksiyasi va innovatsion tafakkurini rivojlantiradi. Natijada o'qituvchilar nafaqat mavjud bilimlarini mustahkamlaydi, balki ishlab chiqarishdagi yangiliklarni tezkor o'zlashtirish va ta'lim mazmuniga integratsiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, tahliliy ma'lumotlar ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi hamkorlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Agar mazkur hamkorlik tizimli va uzluksiz tashkil etilsa, o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalari barqaror rivojlanadi, aks holda integratsiya faqat formal xarakter kasb etishi mumkin. Bu esa metodik ta'minot va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish jarayonida shuningdek, ayrim muammolar ham aniqlanadi. Jumladan, ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'limni joriy etishda o'qituvchilarning ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligi, ishlab chiqarish bazalarining ta'lim jarayoniga moslashuvi yetarli darajada emasligi hamda metodik ko'rsatmalar tizimining to'liq ishlab chiqilmaganligi ushbu jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, tahliliy natijalar ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim asosida takomillashtirilgan metodika o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ta'lim mazmunining amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos pedagog kadrlarni tayyorlash imkonini berishini tasdiqlaydi. Bu holat mazkur metodikaning ta'lim tizimi uchun ilmiy-

amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta'lim asosida o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish, avvalo, mazkur jarayonni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metodikani takomillashtirishni taqozo etadi. Takomillashtirilgan metodika o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini real ishlab chiqarish sharoitlari bilan uyg'unlashtirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning innovatsion va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Birinchidan, o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ishlab chiqarishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlari tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quv mashg'ulotlari mazmuni real ishlab chiqarish jarayonlari, texnologik operatsiyalar va amaliy muammolar asosida ishlab chiqilishi, o'qituvchilar ushbu jarayonlarda bevosita ishtirok etishi lozim. Mazkur yondashuv o'qituvchilarda kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, metodikani takomillashtirishda loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O'qituvchilar ishlab chiqarish subyektlari bilan hamkorlikda real loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ishtirok etishi orqali texnologik tafakkur, jamoada ishlash va natijaga yo'naltirilgan faoliyat ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning amaliy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ustoz–shogird va mentorlik mexanizmlarini ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiyalash zarur. Tajribali mutaxassislar va ishlab chiqarish ustalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini yangilash, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish hamda ilg‘or ishlab chiqarish tajribasini ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Bu metodik yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshiradi.

To‘rtinchidan, metodikani takomillashtirish jarayonida kompetensiyaga yo‘naltirilgan baholash tizimini joriy etish muhimdir. O‘qituvchilarning amaliy kompetensiyalari an’anaviy nazorat shakllari bilan emas, balki real ishlab chiqarish vazifalarini bajarish darajasi, loyihalar natijadorligi va kasbiy faoliyat samaradorligi asosida baholanishi lozim. Bu yondashuv baholash jarayonining obyektivligini oshiradi va o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashiga rag‘batlantiradi.

Beshinchidan, takomillashtirilgan metodika doirasida raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, raqamli ishlab chiqarish modellaridan foydalanish o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va xavfsiz muhitda amaliy tajriba orttirish imkonini yaratadi.

Metodikani takomillashtirish jarayonida muhim jihatlardan biri sifatida o‘qituvchilarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish masalasi alohida e’tiborga loyiq. Ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta’lim sharoitida o‘qituvchi nafaqat ijrochi, balki o‘z faoliyatini tahlil qiluvchi va takomillashtiruvchi subyektga aylanishi lozim. Shu bois, metodikada refleksiv tahlil, o‘z-o‘zini baholash va professional

rivojlanish trayektoriyalarini loyihalash elementlarini joriy etish o‘qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv pedagogik faoliyatda ongli tanlov va mas’uliyatni kuchaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta’lim metodikasining samaradorligini oshirishda hududiy va tarmoqlararo xususiyatlarni hisobga olish zarurligi aniqlanadi. Ishlab chiqarish sohalarining texnologik darajasi, hududiy infratuzilma va mehnat bozori ehtiyojlari o‘qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni va yo‘nalishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, metodikani universal model sifatida emas, balki moslashuvchan va kontekstga yo‘naltirilgan tizim sifatida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasining real va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishga integratsiyalashgan ta’lim asosida o‘qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faqat pedagogik jarayon bilan cheklanib qolmay, balki institutsional va tashkiliy darajadagi qo‘llab-quvvatlashni ham talab etadi. Xususan, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, ishlab chiqarish subyektlarining ta’lim jarayonidagi manfaatdorligini oshirish hamda pedagog kadrlar faoliyatini rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur metodikaning amaliy samaradorligini yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari kelgusida kompleks va tizimli ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta’limga

asoslangan takomillashtirilgan metodika o'qituvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishni tizimli, uzluksiz hamda aniq natijaga yo'naltirilgan jarayon sifatida samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Ushbu metodika ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish hamda zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh o'qituvchilarni shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 26.02.2021-yildagi 106-son qarori
2. Tulanbaeva H. R., Ismailov J. M., Uktamova O. A., Kasimova M. U. Reform of vocational education in Uzbekistan: new opportunities. Volume 3, Issue 5, May-2025 ISSN (E):2938-379X.
3. Rasulova N., Sharipova N., Ismoilova D., Maxsudova M., Haytbayeva S. Scientific and methodological bases of forming pedagogical competence in future teachers on the basis of the Uzbekistan Teacher Skills School.
4. Olimxonovich I. J. O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASI-TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 73-79.
5. Saloxitdinov S., Daminov X. YOSHLARGA YARATILAYOTGAN SA'Y-HARAKATLAR VA ULARNING KELAJAKDAGI NATIJASI VA SAMARASI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14550421> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 32-34.
6. Abduraxmonovna N. S. PEDAGOGIK MAHORAT-ZAMONAVIY O'QITUVCHINING ASOSIY KOMPETENSIYASI // "ILM FAN IFTIXORI". – 2025. – T. 1. – №. 1.
7. O'G'LI M. S. A. KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH SHAROITIDA BO'LJAK O'QITUVCHILARNING AXBOROT VA DIDAKTIK KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH //TADQIQOTLAR. – 2026. – T. 79. – №. 1. – C. 290-293.
8. Saloxitdinov S. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo'nalishlari //Academic literature. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 1-128.
9. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 128-133.